

ARAB TILIDA IZOFA (الإضافة) VA UNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Mamadumarova Zamirabonu Shavkatjon qizi**Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti****Arabshunoslik Oliy maktabi arab-ingliz filologiyasi 1- kurs talabasi****zmuhammadumarova@gmail.com****+998505780703**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21738575>

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi izofa (الإضافة) tushunchasi, uning grammatik xususiyatlari va gap tuzilishidagi oʻrni yoritiladi. Izofaning tarkibiy qismlari — muzof (المضاف) va muzof ilayhi (المضاف إليه) ning oʻzaro bogʻlanishi, izofa hosil boʻlish qoidalari hamda asosiy turlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada asmoul xamsa (الأسماء الخمسة) ning izofa tarkibida qoʻllanishi, ularning oʻziga xos iʻrob xususiyatlari hamda izofa zanjiri (الإضافة المتسلسلة) ning tuzilishi va qoʻllanishi misollar asosida yoritiladi.

Kalit soʻzlar: izofa (الإضافة), muzof, muzof ilayhi, asmoul xamsa, izofa zanjiri.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие идафы (الإضافة) в арабском языке, её грамматические особенности и роль в структуре предложения. Анализируются составные части идафы — мудаф (المضاف) и мудаф илайхи (المضاف إليه), их взаимосвязь, правила образования и основные виды идафы. Кроме того, рассматривается употребление Асмауль Хамса (الأسماء الخمسة) в конструкции идафы, их особенности склонения, а также структура и употребление цепочки идафы (الإضافة المتسلسلة) на основе соответствующих примеров.

Ключевые слова: идафа (الإضافة), мудаф, мудаф илайхи, Асмауль Хамса, цепочка идафы.

Abstract: This article discusses the concept of Idafa (الإضافة) in the Arabic language, its grammatical features, and its role in sentence structure. The components of Idafa—Mudaf (المضاف) and Mudaf Ilayhi (المضاف إليه)—their relationship, the rules of forming Idafa, and its main types are analyzed. The article also explains the use of Asmaul Khamsa (الأسماء الخمسة) within the Idafa construction, their distinctive grammatical inflection, and the structure and usage of the Idafa Chain (الإضافة المتسلسلة) through relevant examples.

Keywords: Idafa (الإضافة), Mudaf, Mudaf Ilayhi, Asmaul Khamsa, Idafa Chain.

Bugungi kunda arab tiliga boʻlgan qiziqishning ortib borishi ushbu til grammatikasini chuqur oʻrganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Arab tili nahvining muhim mavzularidan biri boʻlgan izofa (الإضافة) otlar oʻrtasidagi grammatik va maʼnoviy munosabatlarni ifodalovchi asosiy sintaktik konstruksiyalardan biri hisoblanadi. Izofa yordamida egalik, tegishlilik, mansublik, qism-butun kabi turli maʼnolar ixcham va aniq ifodalanadi. Shu bois izofani puxta oʻzlashtirish arab tilidagi matnlarni toʻgʻri tushunish, grammatik jihatdan tahlil qilish hamda toʻgʻri nutq tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arab tili nahvida izofa mavzusi muzof, muzof ilayhi, asmoul xamsa hamda izofa zanjiri kabi tushunchalar bilan chambarchas bogʻliq. Ushbu mavzularning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganish arab tili grammatikasini chuqurroq anglashga, shuningdek, izofali birikmalarni toʻgʻri qoʻllash va tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Moslashmagan aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan birikma arab tilida izofa (إضافة) deyiladi. Uni tashkil etuvchi aniqlanmish muzof (المضاف), moslashmagan aniqlovchi esa muzof

ilayhi (المضاف إليه) deb yuritiladi. Bunday birikmalarda aniqlanmish oʻzidan keyin kelayotgan aniqlovchining qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Aniqlovchi esa aniqlanmishni aniqlab keladi. Bunda aniqlanmish artiklisiz va tanvinsiz keladi, ammo kelishiklarda turlana oladi. Masalan:

كُتِبَ طَالِبٌ
كُتِبَ طَالِبٌ
كُتِبَ طَالِبٌ

Arab tilida quyidagi beshta ot birlikda kelib muzof vazifasini bajarganda, ularning kelishigi harakatlar bilan emas, balki harflar yordamida ifodalanadi. Bu soʻzlar:

أَب، أُخ، حَم، هُن، نُو

Masalan:

أَبُو طَالِبٍ
أَبِي طَالِبٍ
أَبَا طَالِبٍ

Muzof ikkilikdagi yoki muzakkar toʻgʻri koʻplikdagi otdan iborat boʻlsa, soʻz oxiridagi ن va ن qoʻshimchalari tushib qoladi. Bu holat izofa hosil qilishning muhim grammatik qoidalaridan biri hisoblanadi. Masalan:

كُتِبَ ابْنٌ → كُتِبَ الطَّالِبُ
مُعَلِّمُونَ → مُعَلِّمُو الْمَدْرَسَةِ

Baʼzan izofa ikki emas, balki uch va undan ortiq soʻzdan tashkil topadi. Bunday holatda oʻrtadagi soʻz oʻzidan oldingi soʻzga nisbatan muzof ilayhi, oʻzidan keyingi soʻzga nisbatan esa muzof vazifasini bajaradi. Bunday birikmalar izofa zanjiri deb ataladi. Masalan:

قَلَمَ مُدَرِّسِ الْمَدْرَسَةِ

Mazkur misolda قَلَم muzof, مُدَرِّس birinchi soʻzga nisbatan muzof ilayhi, ikkinchi soʻzga nisbatan esa muzof vazifasini bajaradi. الْمَدْرَسَةِ esa oxirgi muzof ilayhi hisoblanadi.

Baʼzan muzof yoki muzof ilayhining moslashgan aniqlovchisi ham boʻladi.

1. Agar aniqlovchi muzofga tegishli boʻlsa, u muzof ilayhidan keyin keladi. Masalan:

لِيَأْسُ الْفَلَاحِ الْجَدِيدُ

Muzofning aniqlovchisi koʻrsatish olmoshi bilan ifodalangan boʻlsa ham, u muzof ilayhidan keyin keladi. Masalan:

لِيَأْسُ هَذَا الْفَلَاحِ هَذَا

2. Agar aniqlovchi muzof ilayhiga tegishli boʻlsa, u umumiy qoida asosida oʻsha soʻzdan keyin keladi. Masalan:

لِيَأْسُ هَذَا الْفَلَاحِ

3. Agar gapda ham muzofning, ham muzof ilayhining aniqlovchisi mavjud boʻlsa, avval izofa birikmasi, undan keyin muzof ilayhining aniqlovchisi, soʻng esa muzofning aniqlovchisi keladi. Masalan:

دَفَتَرُ الطَّالِبِ الْمُجْتَهِدِ الْجَدِيدِ

Xulosa qilib aytganda, izofa (الإضافة) arab tili nahvining eng muhim grammatik konstruksiyalaridan biri boʻlib, otlar oʻrtasidagi egalik, tegishlilik va boshqa maʼnoviy munosabatlarni ifodalashda muhim oʻrin tutadi. Izofaning tarkibiy qismlari — muzof va muzof ilayhining grammatik xususiyatlarini puxta oʻzlashtirish arab tilidagi soʻz birikmalarini toʻgʻri tuzish, matnlarni grammatik tahlil qilish hamda ularning mazmunini aniq anglashga yordam beradi.

Shuningdek, asmoul xamsaning oʻziga xos iʼrob xususiyatlari hamda izofa zanjirining tuzilishi va

qo'llanish qoidalarini o'rganish arab tili grammatikasi bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Izofa bilan bog'liq qoidalarni mukammal egallash arab tilida grammatik jihatdan to'g'ri va ravon nutq tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdujabborov A. Arab tili. Darslik. – Toshkent, 2005.
2. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2024.
3. Xalidov B. Arab tili grammatikasi. – Toshkent, 2007.